

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil).– 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Turayev Ruhiddin, Safayev Sanjarbek

YER TUZISH LOYIHALARINI YURITISHDA YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	5-9
---	-----

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU ALI IBN SINO –ILM FAN OSMONINING YULDUZ	10-13
---	-------

Muminov Azizbek

ILMIY TADQIQOT HAMDA GEOSIYOSIY MANFAATLAR O'RTASIDA: TURKISTONDAGI XORIJIY ILMIY EKSPEDITSİYALAR VA MUSTAMLAKACHILIK JARAYONLARI	14-17
--	-------

Darmenov Rustem

HIND-ERON DINIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA CHIRIKRABOT MADANIYATINING DAFN MAROSIMI	18-19
--	-------

IQTISODIYOT FANLARI

Xushvaqto'v Jasur

O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI OMMAVIY BAHOLASH VA PROGNOZLASH MUAMMOLARI	20-25
--	-------

FILOLOGIYA FANLARI

Madiraimova Moxlaroyim

CONSONANT CLUSTERS IN ENGLISH AND THEIR ABSENCE IN UZBEK: CHALLENGES FOR LEARNERS	26-30
--	-------

Xaitbayeva Moxira

COMPARATIVE STUDY OF WORD ORDER IN UZBEK AND ENGLISH SPEECH STRUCTURE	31-34
--	-------

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

НЕДОПУСТИМЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В СТАДИИ ДОЗНАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ИХ ОСМЫСЛЕНИЕ	35-38
--	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

Ganiyev Elyorbek

HUQUQIY KOMPETENTLIKNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	39-44
---	-------

Xabibullayev Alimardon

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	45-50
---	-------

Abdullayeva Asila

FALSAFIY KONSEPTLARNI O'ZBEKISTON TARIXINING PEDAGOGIK MATERIALLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH	51-56
---	-------

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMNING LOYIHASI	57-59
--	-------

Yuldasheva Maftuna

O'QITUVCHILARNING KORREKTSION FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BAHOLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	60-65
---	-------

<i>Samandarova Nargiza</i> IQTISODCHI MUTAXASSIS TAYYORLASHDA TIL VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI MASALALARI	66-69
<i>Raxmanova Nigora</i> SHARQ UYG'ONISH PEDAGOGIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM SIYOSATI VA STRATEGIYASIGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	70-75
<i>Kamolov Baxtiyor</i> EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARIDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	76-82
<i>Mavlonova Dildora</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI: TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY-METODOLOGIK TAHLIL	83-85
<i>Tojiboyeva Shohistaxon</i> AXBOROT MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG SAMARALI INTERFAOL METODLAR	86-89

TARIX FANLARI

ABU ALI IBN SINO –ILM FAN OSMONINING YULDUZI

Omonova Sarvinoz

Qarshi Davlat Universiteti, Dotsent

Baratova Gulzoda

Qarshi Davlat Universiteti

Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi Abu Ali ibn Sinoning hayoti, ilmiy faoliyati va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Ibn Sinoning tibbiyot, falsafa va boshqa fan sohalaridagi yutuqlari, uning "Tib qonunlari" asarining dunyo miqyosdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi. Maqola olimning ilm-fanga bo'lgan cheksiz qiziqishi va mehnatsevarligini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Avitsenna, Ragshunosiy, Sachratqi haqida risola, Al- hosili va-l-mahsul, At-tayr, Abu Ubayd Juzjoni, qulanj.

ABU ALI IBN SINA – THE STAR OF THE SCIENTIFIC FIRMAMENT

Omonova Sarvinoz

Karshi State University, Associate Professor

Baratova Gulzoda

Karshi State University

2nd year student of History

Annotation. This article covers the life, scientific work and contribution to the development of humanity of the great scientist of the Eastern Renaissance, Abu Ali Ibn Sina. Information is provided about Ibn Sina's achievements in medicine, philosophy and other fields of science, as well as the global significance of his work "The Canons of Medicine". The article reflects the scientist's boundless interest in science and diligence.

Key words: Avicenna, Ragshunasi, Treatise on Sachratqi, Al-tsorisi wa-l-mahsul, At-tayr, Abu Ubayd Juzjani, kulanj.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i4/n02>

Kirish: Abu Ali ibn Sino – to'liq ismi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali bo'lib, Abu Ali, deb chaqirilgan. Xalq orasida "Ibn Sino", Yevropada „Avitsenna“, allomalar orasida esa „Shayxurrais“ nomlari bilan mashhur bo'lgan. 980-yil avgust oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyni yozishicha, alloma jismonan juda baquvvat bo'lsada, shahrma shahar yurishi, kecha –kunduz tinim bilmay ishlashi va bir necha bor ta'qib qilinishi, hatto hibsda yotishi olimning salomaligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Oqibatda *qulanj* (kolit) kasalligiga chalingan. Isfahon hokimi Alouddavlaning Hamadonga harbiy yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda ahovoli yomonlashib, 1037-yili Hamadonda 57 yoshida vafot etadi. Ibn Sino o'tkir disgnost ham edi. Uning ba'zi tashhis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'sha paytlardayoq a'zoga urish orqali tashhis qo'ya olgan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib vabo bilan o'latni farqlagan. Ibn Sino insoniyat tarixida ko'z jarrohligi amaliyotini birinchilardan

bo'lib amalga oshirgan. Chiqqan yelka suyagini joyiga solish usuli hozirgi kungacha Ibn Sino nomi bilan yuritiladi.

Bemorlarni davolashda olim uch narsaga: tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va b.) ga ahamiyat berish kerakligini ta'kidlagan[1].

Abu Ali ibn Sino garchi har kuni ne-ne majruh va mayiblarni ko'zdan kechirsada, uning ko'zi va ko'ngli inson boshiga tushgan baxtsizliklarga hech ko'nikmas, u hamisha barcha dard va alamlarga qarshi kurash kayfiyati bilan to'la edi. Tabib sil kasalidan o'layotgan juvonning bo'zdek oqargan yuzi va eti suyagiga borib yopishgan gavdasini ko'z o'ngiga keltirdi. Bozor maydonlaridagi och-yalang'och, kasal va majruhlilar ahvolidagi tug'ilgan og'ir taassurotga bu ham qo'shildi. O'sha kuni kechqurun tabib Ibn Sino o'zining vaziri Abul Xasan Ahmad ibn Muhammad as-Salhiy topshirig'iga ko'ra o'ylagan kitobini yozishga kirishdi. Uning nomi *"Da'fil -mizor al kuliya an albadan al insoniya batadoriki an va xatoat - tadbir"* ("Tadbirdagi turli xatoliklar tufayli inson badanida yuz beradigan kasalliklarni ketkazish") deb ataladi[2]. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy risolalari, "Tib qonunlari"dan tashqari, 31 taga yetadi, bu taqriban olimning saqlanib qolgan ijodining choragi hisoblanadi[3].

Ibn Sino 17 yoshdayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqargan, usha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig'i Nux ibn Mansur kasal bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozi saroyga ham yetib borgan edi, uni amirni davoshga taklif qiladilar, va uning ishtirokida davolangan bemor tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kutubxona o'sha vaqtda butun O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdikim, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini toppish mushkil edi. Mantiq, tibbiyot, tabobat va boshqa fanlarni chuqur o'zlashtirgach, Ibn Sino o'sha davr falsafasining asosiy qismlaridan biri hisoblangan metafizikani o'rganishga kirishadi. Biroq yosh olim bu faning daqiq tomonlarini o'zlashtirishga Abu Nasr Farobiy (873-950) tomonidan yozilgan bir falsafiy asarni mutolaa qilgandan keyingina muvaffaq bo'ladi. Ibn Sino o'z davridagi yirik olimlar, jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan ilmiy munozaralari tahminan shu yillardan boshlanadi. U o'zining birinchi yirik ilmiy asarlarini ham Buxoroda 1000-1001 yillarda yozadi. Masalan, o'z qo'shnisi va do'sti Abu-l-Xusayn al-Aruziyning iltimosiga ko'ra riyozatdan boshqa barcha fanlarni o'z ichiga olgan "Al hikmat al-aruziya" nomli asarini, boshqa bir do'sti fiqh va tafsir ilmlarining bilimdoni Abu Bakr al-Barqiy al-Xorazmiyga atab ensiklopedik xarakterga ega bo'lgan 20 jildlik "Al-xosil va-l-mahsul" deb atalgan asarini yozadi.

999-yilda Qoraxoniylar Buxoroni zabt etib Somoniylar davlatini yiqitadilar. Bundan tashqari, ayrim feodal hukmdorlari orasidagi o'zaro urushlar xamon tinmay davom etar va bu voqealar Buxoroda tinch va xotirjamlikda ilmiy ishlarni davom ettirishga qulay sharoit qoldirmagan edi. Buning ustiga 1002 yili Ibn Sinoning otasi vafot etadi. Buning oqibatida esa Ibn Sino yurti Buxoroni tark etib Xorazmga ketadi. O'z siyosatini ko'proq reaksion ruhoniylarga tayanadigan G'azna hukmdori Sulton Mahmud (998-1030) Xorazm yerlarini o'z davlatiga qo'shib olishga harakat qiladi. Unga tobe bo'lishni istamagan Ibn Sino tahminan 1010-1011-yillarda Xorazmdan mahfiy ravishda chiqib Xuroson tomon yo'l oladi. Niso, Abivard va boshqa shaharlarda qisqa vaqt turgandan keyin Kaspiy dengizining sharqi-janubida joylashgan Gurgon

amirligiga yetib keladi. Bu yerda u Abu Ubayd Juzjoniyl bilan tanishadi, shundan boshlab u yigit Ibn Sinoga eng yaqin va sodiq shogird bo'lib qoladi va ustozining oxirgi nafasigacha undan ajralmaydi. Juzjoniyl Ibn Sinoning Gurgonga kelgunicha bo'lgan tarjimai xolini uning o'z og'zidan yozib olgan, ustoz hayotidagi undan keyingi voqealarni ham o'zi yozib tugatgan, shu tufayli biz Ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida ishonchli manbaga egamiz. Ibn Sinoning tog'larning paydo bo'lishi tug'risida juda ajoyib fikrlari hozirgi ilmiy nazariyaga juda yaqin keladi. Uningcha, tog'lar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig'ining ko'tarilishi; 2) suv oqimi va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo'lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo'lib qolishi. Ibn Sinoning "At-tayr" ("Qushlar") nomli she'riy risolasi bilan Fariduddin Attor (1142-1220) ning "Mantiq at-tayr" ("Qushlar so'zi") dostoni orasida ma'lum darajada bog'liqlik bor. Bu mavzu keyichalik Alisher Navoiy (1441 - 1501) ning "Lison at-tayr" ("Qushlar tili") dostoni orqali o'zbek adabiyotiga ham kirib keladi. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ning "Salomon va absol (yoki Ibsol)" nomli dostoni Ibn Sinoning shu nomli qissasi asosida yozilgan. Olimning fors tilida yozilgan bir nechta g'azal va qit'alari va 40 dan oshiq ruboiylari ham mavjud [4]. Ilmiy adabiyotlarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asar qayd etildi. Ammo bizning zamonamizga ularning yarmi yoki sal ko'prog'i yetib kelgan, xalos. Olimning saqlanib qolgan asarlari o'z mazmuniga ko'ra quyidagicha taqsimlanasi: 242 ta asardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi pisixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmi, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. Ibn Sino ilmiy merosi o'rganish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Xozirgacha dunyo miqyosda uning asarlari qator tillarga tarjima etildi va ko'plab ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, uning yirik asari "Tib qonunlari" olimning vatani O'zbekistonda birinchi marotaba arab tilidan rus va o'zbek tillariga tarjima etildi va ilmiy izohlar bilan nashr etildi. Istiqlol yillarida Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati chuqur o'rganish va keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish borasida e'tiborga molik ko'p ishlar amalga oshirildi.

Abu Ali Ibn Sinoning betakror ilmiy merosi atoqli vatandoshimizning insoniyat tarixidagi eng buyuk qomusiy olimlardan biri ekani isbotidir [5]. Ibn Sino yurak va ziynat dorilarining eng yaxshilari qatoriga kiritgan "*omila*" haqida Beruniy bunday deydi: Amlaj – omila. Bu suryoniycha amlak. Katta daraxt bo'lib, barglari mayda bo'ladi. Uning mevasining mazasi pishgunicha ozroq qamashtiruvchi nordon bo'ladi. Ibn Sino o'zidan oldin o'tgan tabiblarining tibbiy –nazariy fikrlaridan, davolash usullaridan va ular kashf qilgan sodda va murakkab dorilardan o'rinli foydalangan [6]. Tib ilmi avvalo ikki qismga–nazariy va amaliyga bo'linadi. Kitobda tibning birinchi va ikkinchi fanida biz tabobatning umumiy nazariy qismini yozib tamom qildik. Endi qolgan ikki fanida esa tabobatning amaliy qismini umumiy tarzda bayon etamiz deyiladi [7]. Ibn Sino o'rta asrlarda turli fanlar bo'yicha 250 ga yaqin asar yozgan, jumladan, "Aliy ad-Davlahga bag'ishlangan fanlar kitobi" kabi uzoq va qisqa risolalar. Nasr "Ishorat" kitobini Avitsennaning so'nggi va eng buyuk durdona asari deb ataydi [8]. Abu Ali ibn Sino "Urjuza" asarida birinchi galda odamlarni davolashni nazarda tutmay, balki unda bo'ladigan kasalliklar hamda ularni davolash yo'llarini ayrim misollar bilagina bayon etgan. "Urjuza" bir varaq nasriy muqaddima va 1326 baytdan iborat asosiy qismda bayon etilgan [9].

Xulosa: Ibn Sino Sharq va jahon ilm-fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalardan biridir. Uning tibbiyot, falsafa, mantiq, musiqashunoslik va tabiiy fanlarga oid qarashlari o'z davridan ancha ilgari ketgan bo'lib, keyingi asrlarda ham o'z ahamiyatini

yo'qotmagan. Allomaning eng mashhur asari — “Tib qonunlari” asari Yevropa universitetlarida XVII asrgacha asosiy tibbiy qo'llanma sifatida o'qitilgan. Ibn Sino fikrlarining zamonaviy fan bilan uyg'unlashishi uning ilmiy merosi universalligi va umumbashariyligidan dalolat beradi. Shunday qilib, Ibn Sino nafaqat o'z davrining bilimdoni, balki insoniyat tarixida fan taraqqiyotini yangi bosqichga ko'targan yirik mutafakkir sifatida yodga olinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Abu Ali ibn Sino” Abduvosi Shonazarov, IBXITM-2022; Б-5-610
2. Aziz Qoyumov; “Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino” Toshkent; УЗБЕКИСТОН ЛКМ Марказий комитети; « Ёш гвардия нашриёти» 1987; Б-114-115
3. Abu Ali ibn Sino “Salomatlik Sirlari” (Tibbiy Risolalar); nashrga tayorlovchilar: U.I. Karimov, X. Xikmatullayev, M.M. Xayrullayev; ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI; Toshkent –2000 Б-12.
4. Abu Ali ibn Sino “Tibbiy O'gitlar” Toshkent; “Mehnat” Nashriyoti 1991; Б-5-6-10
5. Ubaydulla Uvatov; “Buyuk Yurt Allomalari” ikkinchi nashr; Toshkent O'zbekiston 2018 yil; Б-68-69
6. Abu Ali ibn Sino “Ko'rkamlilik sirri” (ziynat kitob); Toshkent,O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «фан» нашриёти 1999; Б -6-10
7. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari; uch jildlik saylanma, 1 jild Тошкент Абдулла Кодирий номидаги Халк мероси нашриёти; Б-70
8. Seyyed hossein Nasr, three Muslim Sages, 1997; page-23,
9. Abu Ali ibn Sino “Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o'git”; Toshkent, Abu Ali ibn Sino nashriyoti 1999. Б-5.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil). – 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.